

NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH USULLARI

Turayeva Gulizaxro

Guliston davlat universiteti dotsenti

Sodiqova Sevinch Rustam qizi

Guliston davlat universiteti Bank ishi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi korxonalar balansida katta ahamiyat kasb etuvchi nomoddiy aktivlarni baholash jarayoni yoritilgan. Brend, patent, litsenziya va intellektual mulk kabi aktivlarning qiymatini aniqlashda qo'llaniladigan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, baholashda uchraydigan muammolar, xususan, bozor qiymatini aniq ifodalovchi ko'rsatkichlarning yetishmasligi masalasi ko'rib chiqiladi. Taklif etilgan yechimlar esa ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *nomoddiy aktivlar, baholash usullari, brend, patent, litsenziya, intellektual mulk, daromad yondashuvi, qiyosiy yondashuv, xarajat yondashuvi, moliyaviy ko'rsatkichlar.*

Аннотация. *В данной диссертации рассматривается процесс оценки нематериальных активов, которые играют важную роль в балансе предприятий. Проанализированы подходы, используемые для определения стоимости таких активов, как бренды, патенты, лицензии и интеллектуальная собственность. Также рассмотрены проблемы, возникающие при оценке, в частности, отсутствие показателей, точно отражающих рыночную стоимость. Предлагаемые решения направлены на совершенствование этого процесса.*

Ключевые слова: *нематериальные активы, методы оценки, бренд, патент, лицензия, интеллектуальная собственность, доходный подход, сравнительный подход, затратный подход, финансовые показатели.*

Annotation. *This thesis discusses the process of valuing intangible assets, which are of great importance in the balance sheet of enterprises. The approaches used to determine the value of assets such as brands, patents, licenses and intellectual property are analyzed. The problems encountered in valuation, in particular, the lack of indicators that accurately reflect market value, are also considered. The proposed solutions are aimed at improving this process.*

Key words: *intangible assets, valuation methods, brand, patent, license, intellectual property, income approach, comparative approach, cost approach, financial indicators.*

KIRISH

Nomoddiy aktivlar korxonaga qiymatini shakllantiruvchi eng muhim iqtisodiy resurslardan bo'lib, ularga patentlar, litsenziyalar, dasturiy ta'minotlar, brend qiymati, nou-xau, mualliflik huquqlari va franshizalar kiradi. Ushbu aktivlar moddiy shaklga ega bo'lmagani sababli ularni baholash jarayoni o'ziga xos yondashuvlarni talab qiladi. Amaliyotda nomoddiy aktivlarni baholashda uchta asosiy yondashuv qo'llaniladi: daromadli, bozor va xarajat yondashuvlari.

Daromadli yondashuv nomoddiy aktivning kelajakda keltirishi mumkin bo'lgan daromadlar asosida uning joriy qiymatini aniqlaydi. Patent, brend, dasturiy ta'minot yoki

franshizadan olinadigan royalti to'lovlari, obuna daromadlari va qo'shimcha iqtisodiy foydalar ushbu yondashuvda asosiy mezon sifatida olinadi. Aktivning kelajak pul oqimlari diskontlanib, uning bozor qiymati hisoblanadi.

Bozor yondashuvi esa nomoddiy aktivning qiymatini o'xshash aktivlar bozorida amalga oshirilgan bitimlar asosida belgilaydi. Patentlar, litsenziyalar, brendlar yoki franshiza paketlari bo'yicha bozor narxlari, shunga yaqin shartnomalar va royalti stavkalari solishtirma ma'lumot sifatida qo'llaniladi. Bu yondashuv bozor ma'lumotlari mavjud bo'lgan holatlarda eng obyektiv natija beradi. Xarajat yondashuvi nomoddiy aktivni yaratish yoki qayta tiklash uchun sarflangan xarajatlar — ilmiy-tadqiqot ishlari, dastur yaratish xarajatlari, patentlash jarayonlari, tajriba-sinovlar va intellektual mehnat sarflari asosida baholaydi. Ushbu yondashuv bozor ma'lumotlari kam yoki aktiv noyob bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Umuman olganda, nomoddiy aktivlarni baholashda birgina usul bilan cheklanib bo'lmaydi. Aktivning turi, iqtisodiy foyda keltirish xususiyati va bozor ma'lumotlarining mavjudligiga qarab yondashuvlar birgalikda qo'llanilishi mumkin. To'g'ri tanlangan baholash usullari korxonaga qiymatini aniqlashda va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Berilgan ta'rifdan ko'rinib turibdi-ki, nomoddiy aktivlar bu: 1-jadval

NOMODDIY AKTIVLAR	- Korxonaning mulkiy obyektidir;
	- Moddiy (natural)-buyum shakliga ega emas;
	- Sotish uchun mo'ljallanmaydi;
	- Xo'jalik faoliyatida uzoq muddat foydalaniladi.

Nomoddiy aktivlarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi: 2-jadval

1-usul	2-usul	3-usul
Boshqa korxonaga ustav kapitaliga nomoddiy aktivlar bilan kirish shartnomalari narxda baholanadi (bozor narxida);	To'lovli sotib olishga ketgan haqiqiy xarajatlar bo'yicha;	Eksport yo'li bilan – qaytarib bermaslik sharti bilan olingan nomoddiy aktivlar eksport yo'li bilan belgilangan qiymatda.

Nomoddiy aktivlarni baholash korxonaning haqiqiy qiymatini aniqlashda va strategik boshqaruv qarorlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Daromadli, bozor va xarajat yondashuvlari ushbu aktivlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib, ularning bozor qiymatini hisoblashning asosiy metodlarini tashkil etadi. Daromadli yondashuv aktivning kelgusidagi daromadlar oqimiga asoslanganligi bois, iqtisodiy foyda beruvchi intellektual mulklar uchun eng samarali hisoblanadi. Bozor yondashuvi esa o'xshash aktivlar bozorida bitimlarga tayangan holda qiymatni obyektiv aniqlash imkonini beradi. Bozor ma'lumotlari yetishmaydigan hollarda xarajat yondashuvi aktivni yaratish xarajatlari asosida baholashda eng maqbul metod sifatida qo'llaniladi. Umuman

olganda, nomoddiy aktivlar o'ziga xosligi va bozor shaffofligining pastligi sababli baholashda bir nechta yondashuvdan kompleks foydalanish aniq va ishonchli natijalarga erishish imkonini beradi.

XULOSA

Nomoddiy aktivlarni baholash – bu korxonaning haqiqiy iqtisodiy ifodalovchi ifodalovchi jarayon bo'lib, u to'g'ri tashkil etilsa, investitsion jozibadorlikni oshiradi. Bozor qiymatini aniq ko'rsatuvchi moliyaviy indikatorlarning yo'qligi bu sohada asosiy to'siq bo'lib turibdi. Shu sababli, baholash tizimini standartlashtirish, intellectual mulkni huquqiy himoya qilish va iqtisodiy qiymatini hisoblash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Nomoddiy aktivlarni to'g'ri baholash korxonaning bozor qiymatini aniqlash, investorlarni jalb qilish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Baholash usullarining takomillashtirilishi, xalqaro standartlarga mos milliy metodikalarni ishlab chiqish hamda mutaxassislar tayyorlash bu sohada dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Buxgalteriya hisobi tog'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2016-yil.
2. Karimov A. “Buxgalteriya hisobi” darslik. “Sharq” HMAKIT. T. 2004-yil.
3. Bayda T.P. Teoriya buxgalterskogo uchyota zadachi i situatsii. Uchebnoe posobie-M.: Finansy i statistika, 2004.
4. Guseva G.N., Sheina G.N. Основы бух. Uchyota: teoriya, praktika, testy. Uchebnye posobie – M.: Finansy i statistika, 2004.
5. IFRS (International Financial Reporting Standards) 38 – Intangible Assets, International Accounting Standards Board (IASB), London, 2023.
6. Turayeva G. et al. Ishlab chiqarishda zararsizlikni tahlil qilish //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 14. – С. 56-58.